

## GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI VA UNING IQTISODIY, IJTIMOY TA'SIRI

**Turdimuxammadov Lazizbek Oybek o'g'li**

*Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti, xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 2-bosqich  
talabasi lturdimuhammedov@gmail.com*

**Annotatsiya:** Bu maqolada global iqlim o'zgarishi iqtisodga va ijtimoiy hayotga qanchalik ta'sir qilayotgani tahlil qilinadi. Havo ifloslanishi, iqlimning haddan tashqari isishi, ekstremal ob-havo hodisalari, suv taqchilligi va qishloq xo'jaligi pasayishi nafaqat davlat balki butun dunyo iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilayotgani ilmiy manbalar asosida ko'rsatiladi. Shu bilan birga iqtisodiy yo'qotishlar, energetika sektori, migratsiya jarayonlari va moslashuv strategiyalari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Iqlim o'zgarishi, iqtisodiy ta'sir, global iqlim o'zgarishlari, energetika, qishloq xo'jaligi.

**Abstract:** This article analyzes the extent to which global climate change affects the economy and social life. Based on scientific sources, it demonstrates that air pollution, extreme global warming, extreme weather events, water scarcity and the decline in agriculture have a negative impact not only on national economies but also on the global economy as a whole. In addition, economic losses, the energy sector, migration processes and adaptation strategies are examined.

**Keywords:** Climate change, economic impact, global climate change, energy sector, agriculture.

**Аннотация:** В данной статье анализируется влияние глобального изменения климата на экономику и социальную жизнь. На основе научных источников показано, что загрязнение воздуха, чрезмерное потепление климата, экстремальные погодные явления, дефицит водных ресурсов и спад в сельском хозяйстве оказывают негативное влияние не только на экономику отдельных государств, но и на мировую экономику в целом. Кроме того, рассматриваются экономические потери, энергетический сектор, миграционные процессы и стратегии адаптации.

**Ключевые слова:** Изменение климата, экономическое воздействие, глобальные климатические изменения, энергетический сектор, сельское хозяйство.

### KIRISH

Global iqlim o'zgarishi XXI asrning eng katta va muhokamalarga sabab bo'layotgan muammolardan biridir. Atmosferadagi CO<sub>2</sub> gazining ortishi ming yillik muzliklarning erishi, qurg'oqchilik va toshqinlarni ko'payishiga olib kelmoqda. Bu oqibatlar nafaqat



ekologiya va odamlarning hayotiga balkim iqtisodiyotga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tahlillariga ko'ra, har yili iqlim o'zgarishi oqibatida 3 trillion dollorgacha iqtisodiy zarar kelmoqda. Global iqlim o'zgarishi asosan inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan omillar natijasida kuchaymoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan gazlar, chiqindilar, metan, transport va energetika sektorlarining kengayishi bilan kesgin oshmoqda. Bunga yaqqol misol qilib BMTning turli hisobotlarida qayd etilganidek, inson faoliyati oxirgi 150 yil ichida yer atmosferasida karbonat angidrid miqdori eng yuqori darajaga chiqanini bilsak bo'ladi. Iqlim o'zgarishi iqtisodiyotga juda katta zarar yetkazmoqda, ulardan biri qishloq xo'jaligiga, iqlim o'zgarishi qurg'oqchilik, suv tanqisligi, issiq to'liqlar va tuproq unumdorligini pasayishiga olib kelmoqda. Buni oqibatida yerdan kamroq hosil olinmoqda va kerakli foydalanilmayapti, unumdor yerlar brogan sari kamayib bormoqda uning oqibatida hosildorlik qisqarib oziq-ovqat narxлари oshishi kuzatilmoqda. Ko'plab davlatlarning asosiy foydasi qishloq xo'jaligidan bo'lib bunday muammolarning orqasidan eksportga tayangan davlatlar iqtisodiy zarar ko'radi. Quruq hududlarning kengayishi qishloq xo'jaligi yerlarining qisqarishiga olib kelmoqda. Bu jarayon uzoq muddatda oziq-ovqat xavfsizligini xavf ostiga qo'yadi. Iqlim o'zgarishi energiya ishlab chiqarishga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, daryo suvlarini kamayishi gidroenergetika quvvatini pasaytiradi, ko'p joylarda energiya yetishmovchiligi kelib chiqadi, haddan tashqari issiq havo elektr tarmoqlarida yuklamani oshiradi, chunki haddan tashqari issiq kunlarda odamlar ko'proq konditsioner, ventilyator va boshqa sovutish qurilmalarini ishlatadi. Natijada elektrga bo'lgan talab ham oshadi ham bosim kuchayadi, issiq havoda o'zi tarmoqlarga ta'sir qiladi, kabellar qizib ularning o'tqazuvchanligi pasayadi. Shu omillarning barchasi elektr tarmoqlarining umumiy yuklamasini sezilarli darajada oshiradi.

Iqlim o'zgarishi, haddan tashqari havo isib va buzulishi sog'liqni saqlash va mehnat bozoriga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bular bilan bog'liq kasalliklar issiq zarbasi, havo sifatining yomonlashuvi, yuqumli kasalliklarning geografik kengayishi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Haddan tashqari issiq mintaqalarda mehnat unumdorligi 30-35% gacha kamayishi mumkin degan ilmiy prognozlar mavjud. Chunki, iqlimning o'zgarishi inson salomatligiga bir necha darajalarda ta'sir qiladi. Quyoshdan kelayotgan issiq to'liqlar natijasida odamlarda qattiq bosh og'rishlari, issiqlik urushi, qon bosimining ko'tarilishi kabi muammolar kelib chiqadi. Havo sifatining yomonlashuvi astma, allergiya va ayniqsa o'pka kasalliklarini keltirib chiqaradi.

1-rasm havosi ifloslanish darajasi<sup>1</sup>



Легенда ИКВ США

| 0-50<br>Хорошо |                                                                                     | 51-100<br>Средне    | 101-150<br>Вредно для уязвимых групп | 151-200<br>Вредно | 201-300<br>Очень вредно | 301+<br>Опасно     |
|----------------|-------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|--------------------------------------|-------------------|-------------------------|--------------------|
| Рейтинг        | Крупный город, страна/регион                                                        |                     |                                      |                   | ИКВ США                 | Подписчиков        |
| 1              |    | Ташкент, Узбекистан |                                      |                   | 216                     | 93.2K подписчиков  |
| 2              |    | Лахор, Пакистан     |                                      |                   | 193                     | 369.7K подписчиков |
| 3              |    | Дакка, Бангладеш    |                                      |                   | 184                     | 219.1K подписчиков |
| 4              |    | Кампала, Уганда     |                                      |                   | 182                     | 8.9K подписчиков   |
| 5              |    | Бишкек, Кыргызстан  |                                      |                   | 179                     | 33.7K подписчиков  |
| 6              |    | Катманду, Непал     |                                      |                   | 173                     | 135.7K подписчиков |
| 7              |    | Дели, Индия         |                                      |                   | 163                     | 2.7M подписчиков   |
| 8              |    | Мумбаи, Индия       |                                      |                   | 160                     | 1.5M подписчиков   |
| 9              |    | Ухань, Китай        |                                      |                   | 159                     | 297.1K подписчиков |
| 10             |  | Карачи, Пакистан    |                                      |                   | 158                     | 64.6K подписчиков  |

1-rasm <https://kun.uz/news/2024/02/29/toshkent-havosining-iflosligi-boyicha-dunyoda-1-oringa-chiqdi-platformasidan-oligan>

Bu rasmda 2025-yil 29-fevralda AQSHning IKB bo'yicha havo sifati reytingini ko'rsatmoqda. Reyting natijalariga ko'ra eng iflos 10 ta shahar ko'rsatilgan va Toshkent shahri 216 daraja bilan 1 o'ringa chiqqan. Bu xavfli bo'lgan juda zararli toifaga kirgan va bunda ehtiyot choralarini ko'rish kerakligi aytiladi. Qolgan shaharlar ham zararli toifaga kirgan bo'lib, bu global miqyosda havo sifati bilan bog'liq muamolarning kuchayganini ko'rsatadi. Pokistonning Lahor shahri 193, Bangladesh pytaxti Dакка 184 va Ugandaning Kampalasi 182 shaharlar ham yuqori ifloslanish bosimi ostida. Bularning asosiy sabablari transport judda ko'pligi, sanoar korxonalari, ishlab chiqarish va energetika kabi omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Markaziy Osiyo vakillaridan biri bo'lgan Bishkek 179 bilan ham ro'yxatdan 5 o'rinda joy olgan va bu mintaqada ekologik vaziyat umumiy tarzda yomonlashayotganini anglatadi. Umumiy qilib aytganda aholining sog'liq bilan bog'liq muammolari oshgani uchun mehnat unumdorligi pasayadi va sog'liqni saqlash xarajatlari ko'payadi. Chang-to'zonlar oshishi elektr ta'minotida uzilishlar xavfini kuchaytiradi. Havoni sifatini yaxshilash uchun ko'p sanoatlar va korxonalar vaqtinchalik to'xtatiladi, bu esa mamlakatning YAIMsiga zarar keltiradi. Masalan, Pokistonning iqtisodiy markazi bo'lgan Lahor va Karachida yuqori ifloslanish ko'rsatilgan, smog tufayli zavodlar vaqtincha to'xtatishgan, malumotlarga ko'ra Pokistonning YAIMining 5-6% gacha qismi aynan shu havoning ifloslanishi tufayli yo'qolgan. Iqlim o'zgarishiga iqtisodiy moslashuv



strategiyalarini tuzish kerak, yashil iqtisodiyotga o'tish zarur. Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o'sishni saqlash holda atrof-muhitga zarar yetkazishni kamaytirishga qaratilgan modeldir.

Bunda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini ko'paytirish va resurslarni tejamkor ishlatish asosiy yo'nalish bo'ladi. Iqlim o'zgarishi kuchaygan sari davlatlar an'anaviy uglerodga tayangan iqtisodiyotni bosqichma-bosqich kam uglerodli iqtisodiyot bilan almashtirishga majbur bo'lmoqda. Iqlim xavfini boshqarishda fermerlar va aholining zaif qatlamlarini himoya qilish uchun indeks asosdagi hosil yoki ofat sug'urtalari joriy etilishi kerak.

Bunday o'tish jarayonlari yangi ish o'rinlari yaratiladi energiya importiga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi, shuningdek havo ifloslanishi kamayadi, sog'liqni saqlash tizimining xarajatlarini kamaytiradi.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish faqat davlatni zimmasidagi vazifa emas, xususi sektorlar ham yordam berishi kerak. Kompaniyalar yangi yashil texnologiyalarini, energiya tejamkorligi va qayta tiklanuvchi energiya yechimlarini joriy qilishi kerak, yashil investitsiyalari va yashil obligatsiyalar chiqarish orqali qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport va chiqindilarni qayta ishlash loyihalariga sarmoya kiritadi.

Yashil texnologiyalar sohasidagi har bir yangi loyiha bu yangi ish o'rni, natijada mehnat bozori uchun ham foyda bo'ladi.

Xulosa.

Global iqlim o'zgarishi nafaqat ekologik, balki chuqur iqtisodit muammo sifatida ham dolzarbligini yo'qotmayapti.

Qishloq xo'jaligi, energetika, iqtisod, sog'liqni saqlash, mehnat bozori va infratuzilma kabi sohalardagi o'zgarishlar dunyo iqtisodiyotiga milliardlab dollarlik zara yetkazmoqda.

Lekin bunday muammolar yangi ish o'rinlari, iqtisodiy imkoniyatlar, yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya yaratmoqda, muammolar ko'paygani sari unga yangi va oson yechimlar yaratilmoqda.

Yashil iqtisodga o'tishni tezlashtirish kerak ko'plab korxonalarda eski ishlab chiqarish tizimlarini yangilash kerak, ulardan chiqayotgan zaharli gazlar havoni sigatiga ta'sir qilmoqda, ommaviy o'rmonlarni kesish deforestatsiya havoni isishiga va qurg'oqchilika olib keladi.

Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun, ushbu jarayonda innovatsiyon yechimlarni joriy etadi, hamkorliklar kuchayadi va moslashuv strategiyalarini puxta ishlab chiqish iqtisodiy barqarorlikning eng muhim omili bo'lib qoladi.

Bardoshli infratuzilma va iqlim moslashgan qishloq xo'jaligida suv boshqaruvi, ularni sug'orish, toshqinlardan himoya qilish qoidalarini yexshilash kerak.







Agar bugundan boshlab ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinsa, iqlim xatarlarini yumshatish bilan birga, yangi iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish ham mumkin bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations Environment Programme (UNEP). "Emissions Gap Report".
2. Dildora Otamurodova. "Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri". Green Economy & Development Journal <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/issue/view/43>
3. Akram Akbarovich Yadgarov. "Iqlim o'zgarishi ta'siridagi moliyaviy yo'qotishlardan himoyalashda indeks sug'urtalash". Insurance Market of Uzbekistan Journal [https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/243?utm\\_source=chatgpt.com](https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/243?utm_source=chatgpt.com)
4. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC) Assessment Reports
5. World Bank. "Climate Change and Economic Impact Analysis"
6. International Energy Agency (IEA). "World Energy Outlook"
7. Stern, N. "The Economics of Climate Change: The Stern Review"
8. OECD Reports on Environmental and Economic Interactions

